



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUG'URTANING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH CHORALARI

Usmonov Sarvarbek

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
ORCID: 0009-0003-1302-8934
sarvarbek.usmon@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik va o'rta biznes subyektlarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda sug'urta tizimining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Muallif sug'urtaning KO'B uchun xavflarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investitsion muhitni yaxshilashdagi ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, O'zbekistonda ushbu tizimning mavjud holati, asosiy muammolari va uni rivojlantirish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar bayon etiladi. Maqola kichik biznesni himoyalash va sug'urta mexanizmlarini yanada faollashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, o'rta biznes, sug'urta, moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy xavflar, sug'urta mexanizmlari.

РОЛЬ СТРАХОВАНИЯ В ПОДДЕРЖКЕ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА И МЕРЫ ПО ЕГО УКРЕПЛЕНИЮ

Усмонов Сарварбек

*Высшая школа бизнеса и предпринимательства при
Кабинете Министров Республики Узбекистан*

Аннотация. В данной статье рассматривается роль страхования в экономической поддержке субъектов малого и среднего бизнеса. Автор раскрывает значение страховых механизмов в управлении рисками, обеспечении финансовой устойчивости и улучшении инвестиционного климата для МСБ. Также анализируется текущее состояние страхового сектора в Узбекистане, выявляются основные проблемы и предлагаются меры по его дальнейшему развитию. Статья содержит научно-практические рекомендации по укреплению системы страховой защиты малого предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, средний бизнес, страхование, финансовая устойчивость, поддержка предпринимательства, экономические риски, страховые механизмы.

THE ROLE OF INSURANCE IN SUPPORTING SMALL AND MEDIUM BUSINESSES AND MEASURES TO STRENGTHEN IT

Usmonov Sarvarbek

*Graduate School of Business and Entrepreneurship under the
Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *This article explores the role of insurance in providing economic support to small and medium-sized enterprises (SMEs). The author highlights the importance of insurance mechanisms in risk management, ensuring financial stability, and improving the investment environment for SMEs. The paper also analyzes the current state of the insurance sector in Uzbekistan, identifies key challenges, and proposes measures for its further development. The article offers practical and research-based recommendations to strengthen insurance protection for small businesses.*

Keywords: *small business, medium-sized business, insurance, financial stability, entrepreneurship support, economic risks, insurance mechanisms.*

Kirish.

Kichik va o'rta biznes (KOB) zamonaviy iqtisodiyotning tayanch ustunlaridan biri sifatida nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratishda, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim o'rin tutadi. Ushbu biznes subyektlari, odatda, moslashuvchanligi, innovatsion yondashuvga tayangan faoliyati va past xarajatlilik darajasi bilan ajralib turadi. Raqobatbardosh bozor iqtisodiyotida KOBlar ichki ishlab chiqarishni kengaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishda ham sezilarli ulushga ega.

O'zbekiston iqtisodiy siyosatida ham KOB subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, bu borada soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, yer va mol-mulkdan foydalanishdagi qulayliklar, yengillashtirilgan litsenziyalash va infratuzilmaviy yordam kabi bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, bu subyektlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, ularni kutilmagan iqtisodiy va tabiiy xavflardan himoya qilishda sug'urta tizimi yetarlicha faol ishtirok etmayapti. Kichik tadbirkorlar ko'pincha sug'urtaning ahamiyatini to'liq anglab yetmaydi yoki undan foydalanishda turli to'siqlar, jumladan moliyaviy va ma'muriy qiyinchiliklarga duch keladilar.

Aslida esa, sug'urta mexanizmlari kichik va o'rta biznes faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish, tashqi xatarlarni yengillashtirish va umumiy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Sug'urtaning mavjudligi biznes subyektlari uchun kafolatli muhit yaratadi, investorlar va kreditorlar ishonchini oshiradi, shuningdek, kredit olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida, KOBlarining moliyaviy resurslarga kirish darajasini oshirib, ularni yanada faol rivojlanishiga yo'l ochadi.

Bugungi globallashtirish va o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda – jumladan pandemiya, iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, logistika uzilishlari va geosiyosiy beqarorlik sharoitida – kichik biznes subyektlari eng ko'p zarar ko'radigan qatlamga aylanmoqda. Aynan shunday tahlikali muhitda sug'urtaning funksiyasi passiv moliyaviy himoya vositasi sifatidagina iborat bo'lib qolmay, balki faol risk boshqaruv mexanizmiga aylanishi lozim. Shu bois KOB sektorida sug'urta madaniyatini shakllantirish, uni rag'batlantirish va institutsional asoslarini mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Kichik va o'rta biznesni (KOB) rivojlantirishda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi institutsional mexanizmlar muhim o'rin tutadi. Bu borada sug'urta tizimi nafaqat

xavf-xatarlarni kamaytirish, balki biznes muhitining barqarorligini oshirish vositasi sifatida ham ko'rilmoqda. So'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda sug'urtaning KOB faoliyatidagi o'rni, uning iqtisodiy samaradorligi va davlat siyosatidagi roli atroflicha tahlil qilinmoqda.

Taniqli iqtisodchi olim Skipper (2008) sug'urtani iqtisodiy o'sishning moliyaviy katalizatori sifatida baholab, ayniqsa kichik biznes uchun u resurslarni xavfsiz muhitda jalb etishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, sug'urta ishtirok etgan joyda kreditlash imkoniyatlari kengayadi, investitsiya muhiti yaxshilanadi, moliyaviy xavflar kamayadi. Muallif ushbu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlaydi, chunki aynan KOBlar faoliyatida kredit oluvchanlik masalasi doimiy muammo bo'lib qolmoqda.

Outreville (2013) esa rivojlanayotgan davlatlar kontekstida sug'urtaning iqtisodiyotdagi roli haqida fikr bildiradi. U KOB sektorining barqaror faoliyati ko'p jihatdan ijtimoiy himoya va xavfsizlik infratuzilmasiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Outreville fikricha, davlat tomonidan sug'urta bozorini qo'llab-quvvatlash orqali kichik tadbirkorlarning aktivlarini himoyalash, ularning kutilmagan yo'qotishlarga bardosh berishini kuchaytirish mumkin. Ushbu fikr muallif nuqtai nazari bilan hamohang bo'lib, aynan davlatning faolligi sug'urta vositalarining KOB sektorida ommalashuviga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.

Sug'urta va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik masalasini chuqur o'rgangan Arena (2008) o'z tadqiqotida hayot va mol-mulk sug'urtasining iqtisodiy o'sishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Ayniqsa, kichik biznes uchun mulkni sug'urtalash mexanizmi ularning uzoq muddatli faoliyatini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Muallif bu fikrni to'liq qo'llab-quvvatlaydi, chunki mulkiy xavfsizliksiz kichik biznesda kapital aylanishi va tashabbus barqarorligi ta'minlanmaydi.

Holzheu va Turner (2018) esa kichik bizneslarda risklarni boshqarish nuqtai nazaridan sug'urtaning o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi. Ularning fikriga ko'ra, sug'urtalangan KOBlar bozor beqarorligiga va iqlim xavflariga nisbatan chidamliroq bo'ladi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi yoki kichik ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlar uchun ixtisoslashgan sug'urta mahsulotlari zarurdir. Bu jihat muallif tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, chunki O'zbekiston sharoitida aynan ushbu segmentlar ko'proq tabiiy va iqtisodiy xatarlar ta'siriga uchraydi.

Xalqaro tajriba nuqtai nazaridan, Xitoy va Hindiston kabi yirik iqtisodiyotlarda KOB subyektlari uchun davlat subsidiyalari orqali sug'urtaning joriy etilishi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgani haqida Li va Wang (2016) o'z tadqiqotida e'tirof etadi. Ularning fikricha, KOBlar uchun maxsus sug'urta paketlari yaratish va ularni raqamli platformalar orqali taklif etish soha qamrovini oshiradi. Ushbu fikr bugungi raqamlashtirish sharoitida ayniqsa dolzarb bo'lib, O'zbekiston sug'urta bozorining ham zamonaviy texnologiyalar orqali KOB sektoriga yaqinlashuvi zarurligini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan e'lon qilingan "SMEs and Insurance" hisobotida KOBlar o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish, axborot-kommunikatsion vositalar orqali ularni xabardor qilish va soddalashtirilgan sug'urta mahsulotlari joriy etish bo'yicha strategik yondashuvlar taklif etiladi. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston uchun ham dolzarb sanaladi, chunki amaliyotda aksariyat kichik tadbirkorlar sug'urtaning foydasi, mexanizmlari va imkoniyatlaridan yetarlicha xabardor emas.

Yuqoridagi olimlar fikrlari xalqaro ilmiy manbalar sug'urtaning KOB subyektlari faoliyatida o'sish va barqarorlikni ta'minlovchi muhim vosita ekanini isbotlaydi. Shu bilan birga, bu tizimning samarali ishlashi uchun davlat siyosatining izchil qo'llovi, institutsional asoslarning mustahkamlanishi va tadbirkorlar orasida sug'urta madaniyatining keng yoyilishi zarurligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishlar bo'yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqilishi KOB sektorining xavfsiz rivojlanishiga asos bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola ijtimoiy tadbirkorlik haqidagi nazariy bilimlarga asoslangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya, deduksiya dan foydalangan holda ilmiy natijalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, bir tomondan, moliyaviy himoya vositasi sifatida xatarlarni taqsimlash va ularni kompensatsiyalash mexanizmida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, milliy iqtisodiyotda moliyaviy resurslar aylanishining muhim bo'g'ini sifatida ko'riladi. Sug'urta tizimi orqali yuzaga kelishi ehtimol bo'lgan zararlarning iqtisodiy subyektlar o'rtasida taqsimlanishi – iqtisodiy xavflarning makro va mikro darajadagi oqibatlarini kamaytiradi, bu esa umumiy barqarorlik va ishonch muhiti uchun zamin yaratadi.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'iladigan badallar odatda katta hajmdagi moliyaviy jamg'armalarni tashkil qiladi. Bu jamg'armalar nafaqat kelajakdagi tovon to'lovlari uchun zaxira sifatida, balki moliya bozorlariga yo'naltiriladigan investitsiya resurslari sifatida ham xizmat qiladi. Shunday qilib, sug'urta sektori sarmoya faoliyatining muhim ishtirokchisiga aylanadi va real iqtisodiyotdagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bevosita rol o'ynaydi.

Swiss Re (2022) Institute tomonidan olib borilgan tadqiqotda qayd etilishicha, sug'urta kompaniyalari global moliyaviy bozorlar uchun eng yirik institutional investorlar sirasiga kiradi. Ularning uzoq muddatli yondashuvi iqtisodiyotda sarmoyaning barqaror oqimini ta'minlab, iqtisodiy sikllarning keskin tebranishlarini yumshatadi.

Mojon (2010) sug'urta kompaniyalarining moliyaviy vositachi sifatidagi rolini tahlil qilar ekan, ularni iqtisodiy infratuzilmaning "xavf amortizatori" deb ataydi. Mojonning fikriga ko'ra, sug'urta kompaniyalari moliyaviy salohiyatni muayyan iqtisodiy sektorlarga yo'naltirish orqali resurslarning optimal taqsimotiga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat individual himoyani, balki makroiqtisodiy o'sishni ham rag'batlantiradi.

Jappelli va Pistaferri (2007) esa sug'urtaning iste'mol barqarorligiga ta'sirini o'rganib, uni xonadonlar va firmalar darajasida "kutilmagan tebranishlarga qarshi moliyaviy bufer" deb baholaydi. Ularning tadqiqotida ko'rsatilishicha, aholi va biznes subyektlarining risklardan himoyalanganligi, ularning iste'mol va investitsiya qarorlarini ishonch bilan qabul qilishiga zamin yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, sug'urta sektori quyidagi yo'nalishlarda iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi:

- risklarni qayta taqsimlash orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash;
- kapital bozorlarining likvidligi va chuqurligini oshirish;
- uzoq muddatli investitsion resurslarni shakllantirish;
- ishonchli moliyaviy infratuzilmani barpo etish orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish.

Sug'urta sohasi bevosita ishlab chiqarish bilan shug'ullanmasada, iqtisodiy tizimda muhim funksiya – moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, sarmoyani rag'batlantirish va makroiqtisodiy muvozanatni qo'llab-quvvatlash funksiyasini bajaradi.

Umuman olganda, sug'urta faoliyatining mohiyati uning quyidagi asosiy funksiyalarida namoyon bo'ladi (1-rasm).

Risklarni kompensatsiyalash funksiyasi – bu sug'urtaning asosiy vazifasi bo'lib, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, moliyaviy yo'qotishlar kabi salbiy holatlarda zararlarni qoplashni ta'minlaydi;

Moliyaviy-stabilizatsion funksiyasi – sug'urta korxonalarning, xonadonlarning va ijtimoiy guruhlarining iqtisodiy xavfsizligini oshirish orqali moliyaviy barqarorlikka hissa qo'shadi;

Jamg'arma-yig'im funksiyasi – sug'urta mukofotlari orqali moliyaviy resurslar yig'iladi va bu resurslar qayta investitsiya qilinadi;

Ijtimoiy himoya funksiyasi – aholini turli xil ijtimoiy-iqtisodiy xavflardan himoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi;

Profilaktik funksiyasi – sug'urtalangan subyektlarni xavf omillarini kamaytirish, texnik xavfsizlik va ehtiyot choralari ko'rishga undaydi.



1-rasm. Sug'urta faoliyatining asosiy funksiyalari

Sug'urta faoliyatining iqtisodiy ahamiyati uni faqat zararlarni qoplash vositasi sifatida emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi, investitsiyaviy muhitni yaxshilovchi va makroiqtisodiy muvozanatni qo'llab-quvvatlovchi muhim institut sifatida qarashga asos yaratadi.

Shuningdek, sug'urta mexanizmlari kichik biznes faoliyatining uzluksizligini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib, u biznes egalarini turli moliyaviy zararlardan – mulkiy talofatlar, texnologik nosozliklar, ishlab chiqarishdagi uzilishlar, tabiiy ofatlar va boshqa tashqi ta'sirlardan himoya qiladi. Kichik korxonalar ko'pincha o'z resurslariga tayanadi, xavflarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Shu sababli, sug'urta ularning iqtisodiy faoliyatidagi noaniqliklarni kamaytiradi va moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish orqali doimiy ish faoliyatini saqlab qolish imkonini beradi.

Kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida O'zbekistonda ham faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Davlat tomonidan bu sohaga qaratilgan soliq imtiyozlari, kredit resurslari, infratuzilma yengilliklari va boshqa moliyaviy vositalar mavjud bo'lishiga qaramay, KOB subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi sug'urta tizimi hanuz to'laqonli faoliyat ko'rsata olmayapti. Xatarlar va noaniqliklar fonda kuchayib borayotgan hozirgi global iqtisodiy sharoitda esa sug'urta xizmatlarining KOB faoliyatida ishtirokini kuchaytirish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekiston sug'urta xizmatlari bozori so'nggi besh yillikda sezilarli o'zgarishlarga yuz tutdi. Sug'urta kompaniyalari soni nisbatan barqaror bo'lib qolgan bo'lsa-da, ularning moliyaviy hajmi va operatsion salohiyati ancha oshgani kuzatiladi. Quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bozorning rivojlanish tendensiyalarini yaqqol ko'rsatib beradi (1-jadval).

O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining asosiy ko'rsatkichlari

Yil	Ko'rsatkichlar			
	Sug'urta kompaniyalari soni	Sug'urta mukofotlari (mlrd.so'm)	Sug'urta qoplamalari (mlrd.so'm)	Jami ustav kapitali (mlrd.so'm)
2019	36	2313.9	813.5	755.2
2020	40	2212	732	1439.1
2021	42	3733	1235	1545.7
2022	41	6231.7	2596.9	1884.1
2023	38	8059.7	2022.1	2299.5

2019-yilda mamlakatda 36 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritgan bo'lib, ularning jami yig'gan sug'urta mukofotlari hajmi 2313,9 mlrd. so'mni, to'langan sug'urta qoplamalari esa 813,5 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu davrda jami ustav kapitali 755,2 mlrd. so'm bo'lgan.

2020-yilga kelib kompaniyalar soni 40 taga yetgan bo'lsa-da, yig'ilgan mukofotlar hajmi 2212 mlrd. so'mga tushgan. Bu holat pandemiya sharoitida iqtisodiy faollikning pasayishi va ixtiyoriy sug'urtaga bo'lgan talabning qisqarishi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, ustav kapitalining keskin oshib, 1439,1 mlrd. so'mga yetgani kompaniyalar moliyaviy barqarorlikni saqlashga urinayotganini ko'rsatadi.

2021-yil bu soha uchun tub burilish yili bo'ldi. Yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 3733 mlrd. so'mga, to'langan qoplamalar esa 1235 mlrd. so'mga oshdi. Bu o'sish majburiy sug'urta turlarining kengayishi va yangi texnologiyalar joriy etilishi bilan bog'liq. Ustav kapitali esa 1545,7 mlrd. so'mga yetdi.

2022-yil esa sug'urta bozori hajmi bo'yicha sezilarli o'sishni ko'rsatdi. Sug'urta mukofotlari hajmi bir yil ichida qariyb 2500 mlrd. so'mga oshib, 6231,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu davrda qoplamalar miqdori ham ikki baravarga yaqin oshib, 2596,9 mlrd. so'mga yetdi. Kompaniyalar soni 41 taga yetgan bo'lsa-da, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich yana 38 taga tushgan, bu sohada ayrim kichik kompaniyalar faoliyatini to'xtatganini anglatadi.

2023-yilda esa bozor yana o'sishni davom ettirib, sug'urta mukofotlari hajmi 8059,7 mlrd. so'mga yetdi. Biroq, bu yilda to'langan qoplamalar 2022,1 mlrd. so'mni tashkil etib, avvalgi yildagidan pasaygan. Bu holat sug'urta kompaniyalarining tavakkalchilikni boshqarish strategiyalarini qayta ko'rib chiqayotganini va to'lovlar siyosatini qat'iylashtirganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, jami ustav kapitalining 2299,5 mlrd. so'mga yetgani ushbu sohaning moliyaviy jihatdan mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Tahlil qilinayotgan raqamlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sug'urta bozori hajman o'smoqda, lekin bu o'sish sifat jihatdan muammosiz kechmayapti. Ayniqsa, to'lovlar miqdorining kamayishi, kompaniyalar sonining qisqarishi va KOB sektorining sust ishtiroki bozorning ichki muammolari mavjudligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, bozor hajmining oshishi ixtiyoriy sug'urtaning ommalashganini anglatmaydi, chunki o'sishning katta qismi majburiy sug'urta turlariga to'g'ri kelmoqda.

Yuqoridagi statistik tahlil va raqamli ko'rsatkichlar asosida O'zbekiston sug'urta xizmatlari bozorida bir qator tizimli va amaliy muammolar mavjudligi ayon bo'ladi. Avvalo, sohada sifat va hududiy nomutanosiblik muammosi mavjud: sug'urta mukofotlari hajmi yildan-yilga oshayotgan bo'lsa-da, ularning asosiy qismi yirik shaharlarda to'plangan, chekka hududlarda esa xizmatlar qamrovi pastligicha qolmoqda. Bu esa hududiy tengsizlik va infratuzilmaviy cheklovlarga ishora qiladi.

Shuningdek, ixtiyoriy sug'urtaning ommalashmaganligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Majburiy sug'urtalar ulushi yuqori bo'lishi fonida ixtiyoriy polislar ulushining pastligi, aholining va ayniqsa kichik biznes vakillarining sug'urtaga nisbatan sust munosabatini ko'rsatadi. Sug'urta madaniyati va xabardorlik darajasining pastligi, murakkab shartnomalar, ishonchsizlik va xizmatlar sifati bo'yicha shikoyatlar bu holatning asosiy sabablaridandir.

Bundan tashqari, 2023-yilda sug'urta qoplamalari miqdorining avvalgi yildagidan kamayganligi sug'urta kompaniyalarining to'lov siyosatida qat'iylik ortganini ko'rsatadi, bu esa mijozlar ishonchiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, kompaniyalar sonining kamayishi (2021-yildagi 42 tadan 2023-yilda 38 taga) sohada raqobat muhitining sustlashuvi yoki moliyaviy bosimlar ostida kichik subyektlarning chiqib ketayotganidan darak beradi.

Umuman olganda, sug'urta xizmatlari bozorida mavjud muammolarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- hududlar bo'yicha xizmatlar notekis taqsimlangan;
- ixtiyoriy sug'urtaning ommalashmaganligi;
- aholining moliyaviy va sug'urta savodxonligining pastligi;
- kompaniyalar va mijozlar o'rtasidagi ishonch muhitining sustligi;
- mahsulotlar xilma-xilligining yetishmasligi;
- to'lov siyosatidagi qat'iylik sababli ishonchni yo'qotish xavfi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun institutsional islohotlar, sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish, KOBga mos mahsulotlar ishlab chiqish va aholining xabardorligini oshirish bo'yicha kompleks yondashuv zarur.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy himoya qilish, ularning faoliyatidagi tavakkalchiliklarni kamaytirish va barqarorligini ta'minlashda sug'urta tizimi muhim institutsional vosita sifatida qaralmoqda. Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda sug'urta xizmatlari bozorining umumiy hajmi ortib borayotganiga qaramay, aynan KOB sektorining bu tizimga integratsiyasi sust darajada saqlanmoqda. Ixtiyoriy sug'urtaning ommalashmaganligi, hududlar bo'yicha xizmatlar nomutanosibliigi, sug'urta xizmatlari bo'yicha xabardorlikning pastligi, mahsulotlarning KOB ehtiyojlariga yetarlicha moslashmaganligi hamda kompaniyalar bilan mijozlar o'rtasidagi ishonch muhitining zaifligi asosiy tizimli muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va sug'urta xizmatlarini KOB sektori ehtiyojlariga yaqinlashtirish uchun bir qator yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, KOB uchun soddalashtirilgan va arzon sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, aholining moliyaviy va sug'urta savodxonligini oshirishga qaratilgan targ'ibot dasturlarini kengaytirish, davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega KOB subyektlarining sug'urta xarajatlarini qisman subsidiyalash, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar sifati va qulayligini oshirish zarur. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali mijozlar ishonchini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, sug'urta xizmatlari bozorini KOB sektorining o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirish va tizimli takomillashtirish orqali O'zbekistonda barqaror, xavfsiz va raqobatbardosh tadbirkorlik muhitini shakllantirish mumkin.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Arena P. (2008). *Does insurance market activity promote economic growth? A cross-country study for industrialized and developing countries. The Journal of Risk and Insurance*, 75(4), 921-946.

European Commission. (2020). *SMEs and insurance: Challenges and opportunities. European Union Publication Office.*

Holzheu T., Turner T. (2018). *The natural catastrophe protection gap: Measurement, root causes, and ways of addressing underinsurance for extreme events. Swiss Re Institute.*

Jappelli T., Pistaferri L. (2007). *Do people respond to risk? Evidence from the life insurance market. Journal of the European Economic Association*, 5(2-3), 396-404.

Li J., Wang A. (2016). *Insurance and SME development: Evidence from China and India. Asian Economic Policy Review*, 11(2), 238-259.

Mojon B. (2010). *Insurance companies as financial intermediaries*. European Central Bank, Working Paper Series.

Outreville J.F. (2013). *The relationship between insurance and economic development: 85 empirical papers for a review of the literature*. *Risk Management and Insurance Review*, 16(1), 71–122.

Skipper H.D. (2008). *Insurance in the general agreement on trade in services*. American Enterprise Institute Press.

Swiss Re Institute. (2022). *World insurance: Inflation risks front and centre*. *Sigma Report No. 4/2022*. Retrieved from <https://www.swissre.com/institute>.